



IQTISODIY MUTANOSIBLIKNING BUZILISH OMILLARI VA UNI ANIQLASHGA DOIR YONDASHUVLAR

PhD Murtazayev Isabek Bazarbayevich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

ORCID: 0009-0005-9012-1918

isabekmurtazayev72@gmail.com

Annotatsiya. *Iqtisodiy mutanosiblikning buzilish sabablarini o'rganish dastlab uning makro, mikro darajadagi ko'rsatkichlari va mezonlarini ilmiy tadqiq etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan ko'plab makro darajadagi hisob-kitoblarni tahlil qiluvchi milliy iqtisodiyot mustaqil va tashkiliy jihatdan o'zaro bog'liq xo'jalik yurituvchi subyektlardan iborat bo'lib, turli mulk shakllari ko'rinishida jamiyatdagi ijtimoiy va individual mehnat taqsimotining rivojlanishi hamda iqtisodiy manfaatlar tizimining bir-biriga mos ravishda amalga oshirilishini aks ettiradi. Agar iqtisodiy manfaatlar bir-biriga zid kelsa, iqtisodiy faollik susayadi, yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish sur'atlari pasayadi, aholi daromadlari kamayadi va bu holatni mutanosiblikning buzilish alomatlari deb qarash lozim bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy mutanosiblik, mutanosiblik mezonlari, ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi, bandlik darajasi, iqtisodiy o'sish, jamg'arish va investitsiyalar, xufiyona iqtisodiyot.*

ФАКТОРЫ НАРУШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПРОПОРЦИОНАЛЬНОСТИ И ПОДХОДЫ К ЕГО ОПРЕДЕЛЕНИЮ

PhD Муртазаев Исабек Базарбаевич

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация. *Изучение причин экономического неравновесия требует в первую очередь научного изучения его показателей и критериев на макро- и микроуровне. С этой точки зрения национальная экономика, как анализируют многие расчеты макроуровня, состоит из самостоятельных и организационно взаимосвязанных хозяйствующих субъектов, отражает развитие общественного и индивидуального разделения труда в обществе в форме различных форм собственности, а последовательная реализация системы экономических интересов. Если экономические интересы конфликтуют друг с другом, экономическая активность замедляется, темпы производства валового внутреннего продукта снижаются, доходы населения уменьшаются, и такую ситуацию следует рассматривать как признак диспропорции.*

Ключевые слова: *экономическая пропорциональность, критерий пропорциональности, производство, производительность труда, уровень занятости, экономический рост, сбережения и инвестиции, тайная экономика.*

FACTORS OF DISRUPTION OF ECONOMIC BALANCE AND APPROACHES TO ITS DETERMINATION

PhD Murtazayev Isabek Bazarbayevich

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Abstract. *The study of the causes of economic imbalances requires, first of all, a scientific study of its indicators and criteria at the macro and micro levels. From this point of view, the national economy, which is analyzed in many macro-level calculations, consists of independent and organizationally interconnected economic entities, reflecting the development of the social and individual division of labor in society in the form of various forms of ownership and the harmonious implementation of the system of economic interests. If economic interests conflict with each other, economic activity slows down, GDP growth rates decrease, and population incomes decrease, and this situation should be considered as a sign of imbalance.*

Keywords: *economic proportionality, proportionality criterion, production, labor productivity, employment rate, economic growth, savings and investments, secret economy.*

Kirish.

Iqtisodiy mutanosiblikning makrodarajadagi asosiy ko'rsatkichlari tovar hajmi bilan pul massasi, jamg'armalar va investitsiyalar, daromadlar bilan xarajatlar, sanoat bilan qishloq xo'jaligi, bandlik va inflyatsiya darajasi o'rtasida bo'lsa, mikroiqtisodiy sharoitga esa, sanoatning qazib olish va qayta ishlash tarmoqlari, chorvachilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi mutanosibliklar kiradi.

Chunonchi, har bir ko'rsatkich o'z ifodasini iqtisodiy mutanosiblikning ma'lum mezonlarida topadi. Masalan, yalpi ichki mahsulotning ko'payishi iqtisodiy o'sish sur'atida, milliy daromadning oshishi xalq farovonligi darajasida o'z aksini topadi. Shu sababli, iqtisodiy mutanosiblik mezonlarini nazariy va amaliy jihatdan bilish katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Mutanosiblikning mehnatga layoqatli aholi bandligini ta'minlash mezonlari bu - mehnat va yer, boylikning asosiy manbai va ishlab chiqarishni rivojlantirishning manbai hisoblanadi. Zamonaviy ishlab chiqarishning asosiy resurslari bo'lmish kapital, informatsiya, texnologiya va tashkil etish barchasi inson ijodining mahsuli bo'lib, jamiyatda ulardan samarali foydalanish doimo dolzarb masala sanalgan.

Shu nuqtai nazardan, ishsizlikning kelib chiqishini aniqlashtiradigan quyidagi nazariy qarashlar bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizdagi mavjud ba'zi holatlarni tushuntirishda dolzarb hisoblanadi:

Iqtisodchi olim Sey (2008) o'zining "Siyosiy iqtisod traktati" nomli asarida "...ish haqi darajasining g'oyat yuqoriligi mehnat bozori qonunining tasodifiy holati sifatida talqin qilinsa, ish haqi darajasi yollanma mehnatga talabni shakllantiruvchi tadbirkorlar tomonidan tegishli me'yorlarda saqlanib, mehnat bozoridagi mutanosiblik avtomatik ravishda ta'minlanadi" deb e'tirof etadi.

Ingliz iqtisodchisi Mal'tusning (2022) fikricha, "Aholining o'sish sur'ati geometrik progressiyada, ishlab chiqarishning o'sish sur'ati esa, arifmetik progressiyada o'sishga ega bo'lsa, bunday jarayon aholi jon boshiga tushadigan daromadlarning kamayishiga olib keladi. Ushbu holat taraqqiyotning turli bosqichlarida aholining kapitalga bo'lgan talabi mahsulotlar taklifiga qaraganda yuqori bo'lish ehtimoli borligini ko'rsatadi" deb hisoblaydi.

Angliyalik iqtisodchi Pigu (2008) "Mehnat bozorida takomillashmagan raqobatning mavjudligi, ya'ni ish haqining oshishi bevosita pul bilan to'lanadigan ish haqini kamaytiradi hamda bandlikni rag'batlantiradi" deydi.

Mashhur iqtisodchi olim Keyns (2014) "Iste'mol, jamg'arish va investitsiya jarayonlari

bir-biriga nomutanosiblikda amal qiladi. Chunki, jamg'arish va investatsiyaning sub'ektlari turli ijtimoiy guruxlar bo'lganligi uchun ham jamg'arishni investitsiyaga aylantirish uchun iste'mol va investitsiya buyicha samarali talab zarur bo'ladi" deya talqin etadi.

Yangi Zelandiyalik iqtisodchi olim Fillips (2009) "Ish haqining o'rtacha yillik o'sishi bilan ishsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ya'ni bu bog'liqlikning teskari mutanosiblikdaligi: agar ish haqi tez oshsa, ishsizlik ham nisbatan tezroq paydo bo'lishi yoki aksincha bo'lishi mumkinligi" ni isbotlaydi.

Amerikalik iqtisodchi Ouken (2009) ishsizlikning haqiqiy darajasi bilan real YaIM hajmi o'rtasida teskari bog'liqlik borligini isbotlab, uzining "Ouken qonuni" ni kashf etdi va unga ko'ra "...ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 1 foizga oshsa real YaIMni 2,5 foiz orqada qolishini ko'rsatadi" degan g'oyani ilgari suradi.

Shunday ekan, ishsizlikning tabiiy darajasi 4-6 foizda bo'lishi me'yoriy holat, deb qaralib, uning tabiiy darajasi YaIMning potentsial hajmini aniqlash imkonini tug'diradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Nazariy-metodologik tahlil: Iqtisodiy mutanosiblik hamda uning buzilish omillari va yondashuvlar bo'yicha mavjud ilmiy asarlarni o'rganish.

Statistik tahlil: Iqtisodiy ko'rsatkichlarni (masalan, yalpi ichki mahsulot (YIM), ishsizlik darajasi, inflyatsiya, tashqi savdo balansi) o'rganish va ularni tahlil qilish.

Trend tahlili: Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini tahlil qilish va buzilishning boshlang'ich omillarini aniqlash.

Solishtirma tahlil: Iqtisodiy mutanosiblikning turli mamlakatlar yoki hududlarda qanday shakllanishini va buzilish belgilarini solishtirish.

Tarmoq tahlili: Turli iqtisodiy sektorlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi) o'rtasidagi mutanosiblikni baholash.

Tizimli yondashuv: Iqtisodiy tizimning barcha elementlarini bir butun sifatida o'rganish va ularning o'zaro ta'sirini baholash.

Mavzuni yoritishda yuqorida ko'rsatilgan metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda, Mikroiqtisodiyot darajasida mutanosiblik mezoni sifatida, xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlarning uzluksiz oshishini ta'minlaydigan yuqori mehnat unumdorligi, korxonaning rentabellik darajasi va foyda normasini tushunamiz.

Mazkur mezonlar, bir tomondan, korxonalarda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni, ikkinchi tomondan esa, amalda foydalanilayotgan texnika va texnologiyaning zamonaviylik darajasini ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy darajada esa, mutanosiblik mezoni sifatida ko'p hollarda umumiy iqtisodiy mutanosiblik ta'minlanganligi qaralib, unga erishishning asosiy yo'li sifatida ko'p hollarda bandlik va inflyatsiyaga ustuvorlik beriladi.

Chunki, makroiqtisodiy barqarorlik asosan mana shu ikki ko'rsatkichga bog'liklikda o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy mutanosiblikning an'anaviy mezoni - inflyatsiya va bandlik darajasini tegishli me'yorlarda saqlash orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'minlashni nazarda tutadi. Bu yerda iqtisodiy mutanosiblik oraliq maqsadga, ya'ni ishlab chiqarishni rivojlantirish va uniig natijasining miqdor, hajm va tarkib jihatdan iste'molning miqdor, hajm va tarkibiga mos kelishiga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, iqtisodiy mutanosiblikning an'anaviy mezonlariga qo'shilgan holda, aytish mumkinki, unga qo'shimcha ravishda iqtisodiy barqarorlik, real iqtisodiy o'sish va hayot farovonligi darajasini oshirish kabi mezonlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Demak, mazkur mezonlar iqtisodiy mutanosiblikni oraliq maqsad va tor ma'noda tushinishdan himoyalab, uni xalq farovonligini oshirish tomon yo'naltirishga xizmat qiladi. Har

qanday yo'l bilan umumiy iqtisodiy mutanosiblikka erishish - ishlab chiqarishning pirovard maqsadi bo'la olmasligi, pirovard maqsad - aholi daromadlaridagi o'sishini uzluksiz ta'minlash, real iqtisodiy o'sish va iqtisodiy barqarorlikka erishish orqali xalq farovonligini ta'minlash bo'lishi lozim. Ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, makroiqtisodiy mutanosiblik shunchalik barqaror ta'minlangan deb, hisoblash mumkin.

Bugungi kunda, aholi bandligini ta'minlash maqsadida ishsizlikni bartaraf etish uchun keng ko'lamlı ijtimoiy - iqtisodiy harakatlar olib borilmoqda.

Ishsizlik zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas belgisi hisoblanib, o'tish davrida ham muhim ahamiyat kasb etganligi uchun uning paydo bo'lish sabablarini o'rganishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Ishsizlikning mavjudligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- raqobat natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ma'lum qismining bankrotga uchrashi;
 - ilmiy va texnik taraqqiyotining uzluksiz rivojlanishi sharoitida kapitalning to'planishi;
 - iste'mol, jamg'arish va investitsiyalar o'sishi o'rtasidagi ob'ektiv nomutanosiblik;
 - kengaytirilgan takror ishlab chiqarish rivojlanishining davriylik xarakteriga egaligi;
 - zamonaviy bozor va shu jumladan mehnat bozorida raqobatning takomillashmaganligi
- kabi omillar ishsizlik mavjud bo'lishini yaqqol namoyon qilib qo'yadi.

Ishsizlik bilan bog'liq holatda rivojlanishining kuzatilishi mumkin bo'lgan makrodarajadagi iqtisodiy mutanosiblikning yana bir mezonı - inflyatsiyadir. Inflyatsiya - bu tovar-pul muomalasi yo'lining ortiqcha yaroqsiz pullar bilan to'lib-toshib ketishi, ya'ni milliy bozorlardagi tovar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishidir.

Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablarini umumiy holda xalq xo'jaligidagi nomutanosibliklar, bozor iqtisodiyotining takomillashmagan mexanizmi, aholining inflyatsiyani kutishga moyilligi va tashqi iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining takomillashmagan ko'rinishi - bu davlat monopoliyasining mavjudligidir. Bu holat balanslashtirilmagan byudjet bo'lishiga olib kelib, byudjet defitsitini moddiy tovarlar bilan birlashtirilmagan ortiqcha pul chiqarish orqali vaqtinchalik hal etish amaliyotining real hayotda qo'llanishidir. Bundan tashqari, makroiqtisodiy beqarorlik sharoitida xaridorlar va tovar ishlab chiqaruvchilarning inflyatsion kutishi va jahon iqtisodiyotining har bir davlat iqtisodiyotiga nisbatan beqaror va nomutanosib ta'siri ham inflyatsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Bu yerda iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlatlar olib borayotgan siyosatining boshqa davlatlar milliy iqtisodiyotiga ta'siri nazarda tutilmoqda (Хамираев, 2004).

Yuqorida qayd etilgan omillarning barchasi inflyatsion qobiqni paydo qilib, quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- talab va xarajatlar inflyatsiyasi;
- kuchsiz, golopirlashuvchi va giperinflyatsiya;
- balanslashgan va balanslashmagan inflyatsiya;
- kutilayotgan yoki kutilmagan inflyatsiya;
- ochiq va yopiq - inflyatsiyaga bo'linadi.

Hozirgi sharoitda inflyatsiya muammosi bugungi iqtisodiyotning "xronologik kasali"ga aylanib bormoqda va bu iqtisodiyotdagi pul massasi bilan ishlab chiqarilgan tovarlar, xizmatlar hajmi o'rtasidagi nisbatda o'z aksini topmoqda.

Makrodarajadagi eng muhim iqtisodiy mutanosibliklardan biri bu jamiyatdagi pul massasi bilan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi mutanosiblik hisoblanadi. Umumiy pul massasi, deganda ana shu yalpi milliy mahsulotning muomalasini ta'minlaydigan pul miqdorini anglatadi. Shu sababdan ham iqtisodiy mutanosiblik tushunchasining miqdor ko'rsatkichlari yalpi ichki mahsulot qiymati bilan pul massasiga tenglashtiriladi.

Ta'kidlash lozimki, iqtisodiy mutanosiblikning buzilishini ifodalaydigan mezon narxlar indeksining o'zgarishidir. Mazkur holat, birinchi navbatda, jamiyatdagi tovarlar, xizmatlar bilan ularning muomalasini ta'minlaydigan pul massasi o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishini anglatadi. Ushbu buzilish darajasiga ta'sir etuvchi boshqa omillar ham mavjud bo'lib, ulardan

asosiysi jamiyatdagi yalpi tovarlar bilan xizmatlar massasini hisoblash uslubiyatining eskichaligidir.

Jamiyatdagi tovarlar, xizmatlarga nafaqat bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotni, balki jamiyatda sotilishi mumkin bo'lgan barcha tovar va xizmatlarni kiritish lozim, ikkinchidan, ana shularni ayirboshlash uchun kerak bo'lgan pul massasini aniqlash zarur. Masalaga mantiqan yondashib, hayotimizda sodir bulayottan jarayonlarga real qaraydigan bo'lsak, jamiyatda mavjud bo'lgan barcha moddiy ne'matlar, ularning egalari kimligidan, qaysi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar sotilishi va sotib olinishi lozim. Agar, bu mulk ob'ektlari sotiladigan yoki sotib olinadigan bo'lsa ularning sotilishi uchun ma'lum pul massasi, ya'ni muomalaga pul chiqarilishi kerak. Mana shunday zaruratdan kelib chiqib jamiyatda mutanosiblik tushunchasiga keng mazmun berib, uning tarkibiga yalpi ichki mahsulotdan tashqari jamiyatda sotilishi mumkin bo'lgan butun moddiy ne'matlarni qo'shishni maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Shunday ekan, iqtisodiy barqarorlik - ta'minlangan iqtisodiy mutanosiblikning hosilasi sifatida yuzaga chiqib, real iqtisodiy o'sish uchun tegishli shart-sharoit yaratadigan mezon bo'lib xizmat qilish kerak.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy mutanosiblikning yana bir muhim mezoni - bu real iqtisodiy o'sishdir. Iqtisodiyotdagi nisbatlarni oqilona tashkil etish, tarmoqlar va sohalar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, inflyatsiyani jilovlash va yuqori bandlikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad iqtisodiyotni barqarorlashtirish va real iqtisodiy o'sishga erishishdir. Chunki, real iqtisodiy o'sish o'zida, bir tomondan, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llashni, ikkinchi tomondan esa, yangidan yaratilgan qiymatni va ehtiyojlarni qondirishning moddiy negizini barpo etib, xalq farovonligini oshirish asosini vujudga keltiradi. Shu sababli, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad - iqtisodiy o'sishga erishish orqali, aholining farovon yashashini ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy mutanosiblikning tom mezoni - bu xalq farovonligini oshirishdir. Chunki, o'tkazilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va bu sohada qilinayotgan sa'y-harakatlarning hammasi xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim.

Iqtisodiy mutanosiblikning asosiy mezonlari aniqlangandan keyin uning buzilishiga olib keluvchi omillar to'g'risida so'z yuritish mantiqan to'g'ri, deb hisoblash mumkin.

Iqtisodiy mutanosiblikning buzilishi tabiat yoki jamiyatdagi mutanosibliklar buzilishidan farq qiladi. Agar tabiatdagi mutanosiblik buzilsa, unda muvozanatning bir tomoni qisqarib, ikkinchi tomoni ko'payadi. Iqtisodiyotda buzilsa, jamiyat a'zolari mutanosiblikka oqilona yondashib, maqsadga muvofiq mutanosiblikni ta'minlashga harakat qiladi va ko'zlangan maqsadlarga erishadilar.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy mutanosiblik buzilishining asosiy sabablaridan biri - bu bir tomondan, ijtimoiy ehtiyojlarning cheksiz o'sishi bilan ularni qondirish uchun talab qilinadigan ishlab chiqarish resurslarning cheklanganligi bo'lsa, ikkinchidan, mavjud ehtiyojlarni qondirish bilan tegishli ne'matlarni ishlab chiqarish vaqtining mos kelmasligidir. Chunki, ehtiyojlar g'oyat o'zgaruvchan bo'lib, ularning o'zgarishi, ishlab chiqarish tarkibi va turining o'zgarishiga qaraganda doimo oldinda bo'ladi. Sababi, bozorda namoyon bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun talab qilinadigan tovarlarni ishlab chiqarish ma'lum bir vaqtni taqozo etadi. Masalan, bozorda kecha namoyon bo'lgan talabni qondirish uchun deydik o'n kun muddat kerak bo'ladi, lekin, bu tovarlar ishlab chiqarilishiga qadar ehtiyojlar o'zgarmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi, odatda ehtiyojlar uzluksiz o'zgarish tendentsiyasiga ega.

Turli darajadagi iqtisodiy mutanosibliklar buzilishi negizida ushbu ziddiyat yotadi. Agar, bu ziddiyatlar oqilona me'yorlarda, o'z vaqtida bartaraf etilsa, mutanosiblik ta'minlanadi, saqlanadi va barqarorlashadi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy mutanosiblik buzilishining yana bir muhim sababi iqtisodiy taraqqiyotning siklik rivojlanishi hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tarixi shuni ko'rsatadiki,

iqtisodiy taraqqiyot bir tekis, to'g'ri yo'ldan bormasdan, asta-sekin, evolyutsion tarzda boradi. Bu yo'lda makroiqtisodiy mutanosiblikning buzilishi ham tabiiy jarayonga aylanib, taraqqiyot nomutanosibliklar orqali eskirgan ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish usullari va yo'llarini doimo yangilab boradi. Jamiyat taraqqiyoti "mutanosiblik - nomutanosiblik - mutanosiblik" tamoyilida rivojlanib boradi.

Mashhur avstriyalik iqtisodchi Yozef Shumpeter o'z davrida iqtisodiy taraqqiyotning mutanosibli va nomutanosibli rivojlanishini tahlil qilib, iqtisodiy jarayonlar tebranishining uch siklli chizmasini taklif qilgan edi. Bu sikllar bozor iqtisodiyotining uch darajasida amal qilib, ularni qisqa, o'rta va uzun sikllar deb ataydi.

Qisqa sikllarning davomiyligi 4 yilga yaqin bo'lib, ular tovar-moddiy zaxiralarining harakati bilan bog'liqdir. Bu sikllar asosiy kapital ko'rinishidagi investitsiyalarning tovar-moddiy boyliklar zahirasi hajmidan ko'payib ketganida, moddiy ne'matlar zahirasi unga bo'lgan talabdan oshib ketgan holatlarni ifoda etadi. Bunday vaziyatda ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari pasayishi mumkin.

Shunday qilib, qisqa sikllar iste'mol va investitsiya bozorida mutanosiblikni tiklash bilan bevosita bog'liqdir.

O'rta sikllar davomiyligi 8-10 yilni tashkil etib, ko'pincha sanoat sikli ham deyiladi. Bu sikllarning 4 ta fazasi bo'lib, inqiroz, depressiya, jonlanish va ko'tarilishdan iboratdir.

Uzun sikllar yoki uzun to'lqinlar mashhur rus iqtisodchi olimi Kondrat'ev tomonidan asoslangan bo'lib, uning fikricha bozor iqtisodiyoti o'zining industrial bosqichida izchillik bilan "ko'tarilish va pasayish" davriga ega bo'lishini va bu to'lqinlarning davomiyligi yarim asr atrofida bo'lishini e'tirof etadi.

Uning fikricha fan va texnika taraqqiyoti uzoq muddatli sikllar yoki to'lqinlarning kelib chiqishining ichki omili hisoblanishini va sikllar:

1 - to'lqin - XVIII ayerning 90-yillardan to 1844-1851 yilgacha;

2 - to'lqin - 1844-1851 yildan 1890-1896 yilgacha;

3 - to'lqin - 1890-1896 yillardan 1914-1920 yillargacha (Кондратьев, 2007) - amal qilgan uchta uzun to'lqinni ko'rsatib, isbotlab bergan edi.

Darhaqiqat, jahon iqtisodiyoti 1914-1945 yillarda uchinchi uzun to'lqinning pasayish davrini tugatdi. Uzun to'lqinlar nazariyasining to'g'riligini 1929-1933 yillarda Amerika va Yevropada ro'y bergan "Buyuk inqiroz" ham tasdiqlaydi. 1945-1980 yillarda to'rtinchi to'lqinning ko'tarilish davri, pasayish davri esa 1980-2000 yillarda tugadi. Insoniyat XXI asrga N.D.Kondrat'evning beshinchi ko'tarilish to'lqini bilan kirmoqda va bu holat O'zbekiston iqtisodiyotiga ham xos bo'lgan jarayondir.

Bu sikllarning o'zi ham nomutanosiblikning ko'rinishlari hisoblanadi. Cheklangan resurslar bilan cheksiz ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyat, bir tomondan, taraqqiyotning asosi hisoblansada, ikkinchi tomondan, ta'minlangan mutanosibliklar buzilishining bosh omili sifatida yuzaga chiqadi. Bu ziddiyatni butunlay bartaraf qilishning imkoniyati ham, zarurati ham yo'qligini e'tibordan qochirish kerak.

Bundan tashqari, sikllikning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan bir necha muhim o'zgaruvchi omillar ham mavjud bo'lib, ular:

- korxonaning kapital bilan qurollanishi, qiymati va uning tarkibi;

- mehnat unumdorligi;

- milliy daromadda mehnatning ulushi;

- texnik taraqqiyot tezligi;

- bazis innovatsiyalarning vaqt va fazoda nisbatan to'planuvchanligi;

- umumiy ishlab chiqarishga kiritilgan kapital qo'yilmalarda ekstensiv va intensiv investitsiyalarning nisbiy ulushi;

- ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibiy o'zgarishi;

- ishlab chiqarishning tarmoqlari tarkibining o'zgarishi;

- shaxsiy iste'mol tarkibining o'zgarishi;

- mahsulotlar, texnologiya va kapitallarning hayotiy sikllari;
- asosiy kapitaldan foydalanish darajasi;
- ishchi kuchidan foydalanish darajasi;
- tabiiy resurslardan foydalanish darajasi;
- qiyosiy narxlar va boshqa omillar - siklik rivojlanishning kelib chiqishiga ma'lum darajada ta'sir qiladi (Хамираев, 2004).

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, iqtisodiy mutanosiblikning buzilishiga ta'sir etuvchi yana bir sabab - bu xufiyona iqtisodiyotning mavjudligidir. Zamonaviy iqtisodiyot o'zining g'oyat jadalligi va o'zgaruvchanligi bilan bir qatorda uning tarkibida xufiyona iqtisodiyot borligini ham eslatib turadi. Xufiyona iqtisodiyotning ulushi har bir davlatda turlicha bo'lib, uning hajmi o'zga davlatlarda amal qilayotgan iqtisodiy siyosat, ya'ni soliq, boj-tarif va pul - kredit siyosatining hamda investitsion muhitning qay darajada samarali tashkil etilganiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Qaysiki davlatda oqilona iqtisodiy siyosat yuritilayotgan bo'lsa, shu yerda xufiyona iqtisodiyot hajmi nisbatan kam bo'ladi. Qayerda ishlab chiqarishni, tadbirkor, kichik va o'rta biznes taraqqiyotini bukuvchi, soliq, boj-tarif va byudjet siyosati yuritilayotgan bo'lsa, usha yerda soliq, to'lashdan bo'yin tovlovchilar ko'payadi va pirovardida xufiyona iqtisodiyot rivojlanadi. Masalan, rossiyalik iqtisodchilarning fikriga qaraganda Rossiyada yalpi ichki mahsulotning taxminan 1/3 qismi yashirin iqtisodiyot sektorida yaratilayotgan bo'lib, bu mahsulot hech bir idora tomonidan hisobga olinmaydi. Yoki, Rossiya davlat xizmatchilari akademiyasining sotsiologik markazining bergan ma'lumotiga ko'ra Rossiya iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyot hajmi keyingi un yilda besh barabar oshganligini yoki Yevropa davlatlarida 6-10 foiz bo'lgan bir vaqtda Rossiya yalpi ichki mahsulotining 35 foizga yaqinini tashkil etishini ta'kidlaydi (Аргументы и факты, 2022).

Ma'lumki, bu yashirin mahsulotlar bozorda sotiladi va sotib olinadi. Bunday yashirin mahsulot hamma mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham mavjud bo'lib uning miqdorini taxminan 25 foiz, deb faraz qilgan taqdirimizda 2023 yilda 1,07 kvadrillion so'mlik yalpi ichki mahsulot yaratilganligi inobatga olsak xufiyona iqtisodiyot hajmi 245 trillion so'mlik mahsulotni tashkil etadi. Bunday katta miqdordagi mahsulotning hisobga olinmasligi milliy iqtisodiyot mutanosibligi uchun katta xavf mavjudligini keltirib chiqaradi.

Chunki, respublikamizda "xufiyona iqtisodiyot" mahsulotlarining sotilishi va sotib olinishi o'z navbatida yalpi moddiy ne'matlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi mutanosiblikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda ta'kidlash lozimki, jamiyatdagi yashirin mahsulotning muomalasi asosan naqd pulni taqozo etadi. Xufiyona iqtisodiyotni rivojlanish va mavjudlik sharti bu muomaladagi naqd pulning ko'p miqdorida bo'lishi va naqd pul orqali hisob-kitob qilinishidir. Bu iqtisodiyotning boshqacha amal qilish va rivojlanish yo'li yo'q, chunki, boshqa hollarda u oshkora bo'lib ketadi. Zamon talablaridan biri bu - iqtisodiyotda tovarlar muomalasining samarali-tejamli yo'li bu naqd pulsiz hisob-kitob qilishdir.

Jamiyatda xufiyona iqtisodiyot hajmining kengayishi xavfli jarayon bo'lib, bu pul muomalasi tizimining izdan chiqishiga, inflyatsiya jarayoninig kuchayishiga va oxir-oqibat milliy iqtisodiyot mutanosibligining buzilishiga olib keladi.

Xufiyona iqtisodiyotning shunday xususiyati borki, uning muomalasiga kelib tushgan pullar ko'payib, shu sohadan chetga chiqmaydi va o'z domiga boshqa-boshqa yangi sohalarni ham torta boshlaydi. Bundan tashqari, xufiyona iqtisodiyot mamlakatning ichki qonunlari bo'yicha chet el valyutasi muomalasining aylanishiga qaramasdan ularni o'z muomalasiga, milliy iqtisodiyotga jalb etadi va ularning yashirin harakatini vujudga keltiradi. Chunki, yashirin iqtisodiyot sub'ektlari yashirin holatda chet eldan ko'plab tovarlar olib kelib, chetga tovarlar chiqaradi. Mamlakat ichida chet el valyutalarining yashirin muomalasi umumiy tovar bilan pul muomalasi mutanosibligining buzilishiga olib keladi.

Lekin, mamlakatda pul tanqisligi vujudga kelganda, yuridik va jismoniy shaxslarning ish haqini o'z vaqtida berish qiyinchiliklari, pul inflyatsiyasi, korxonalarining debitorlik qarzlarning ko'payishi kabi muommalarning kelib chiqishida ham biz yuqorida qayd etgan

holatlar ma'lum darajada sababchi bo'lib qoladi. Bunday noxush holatlar nominal va real ish haqi o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishiga, bu esa, uz navbatida makroiqtisodiy mutanosiblikning buzilishiga olib keladi.

Shu sababli, respublikamizda olib borilayotgan davlatning monetar siyosatiga ko'ra muomaladagi pul massasi har doim davlat nazoratiga olingan.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiy mutanosiblik tizimi shunchalik murakkabki, tizimning qaysi bir bug'inida nisbatlar o'zgarsa, bu hol iqtisodiyotning boshqa bug'inlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi va bu to'lqinsimon harakat yunalishiga ega bo'ladi.

Iqtisodiy mutanosiblikning buzilishiga tashqi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu tashqi savdoning tarkibi, ya'ni eksport va import miqdori bo'lib, agar tashqi savdo balansi aktiv bo'lsa bu holat mamlakat ichidagi makro, mikroiqtisodiy mutanosiblikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda tashqi savdoning aktiv balansi hamisha eksport qilingan tovarlarning milliy ichki bozorlardagi narxi jahon bozoridagi narxdan past bo'lib, tovarlarni ichki bozorda sotishdan ko'ra tashqi bozorda sotish afzal va samarali bo'lishi mumkin.

Tashqi savdoning aktiv balansi nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali balki boshqa iqtisodiy jarayonlarga ham jumladan, makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tashqi savdoning aktiv balansi mamlakatning milliy valyutasini konvertatsiya qilishga imkon beradi. Bu esa, uz navbatida milliy pulning qadrini bir me'yorda saqlab turishga, mamlakatning valyuta zaxirasini ko'paytirishga va chet el investitsiyasini milliy iqtisodiyotga ko'proq jalb qilishga imkon beradi. Milliy valyuta, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, uni yuqori sur'atlar bilan o'sishga va eng muhimi makro hamda mikrodarajadagi mutanosiblikni ta'minlashga asos yaratadi.

Darhaqiqat, biz yuqorida iqtisodiy nomutanosiblikni keltirib chiqaradigan asosiy sabablarni tahlil qildik. Demak, iqtisodiy mutanosiblikning buzilishi bu - yalpi ichki mahsulot o'sishi sur'ati yoki ijtimoiy - iqtisodiy ishlab chiqariishing pasayishidir. Agar, yalpi ichki mahsulotning ishlab chiqarish hajmida pasayish tendentsiyasi kuzatilsa - bu ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar miqdori bilan pul massasi o'rtasida jiddiy nomutanosiblik borligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy mutanosiblikning buzilishi - bu bir tomondan, ijtimoiy ehtiyojlarning cheksiz o'sishi bilan ularni qondirish uchun talab qilinadigan ishlab chiqarish resurslarining cheklanganligi bo'lsa, ikkinchidan, mavjud ehtiyojlarni qondirish bilan tegishli ne'matlarni ishlab chiqarish vaqtining mos kelmasligidir.

Iqtisodiy mutanosiblik buzilishiga olib keluvchi omillarni bilish va anglash kelajakda ijtimoiy - iqtisodiy inqirozlar kabi salbiy hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

Аргументы и факты (2022) (06.11.2022). AuФ.ru. МОг. КО, Огр.

Блауг М. Оукен, Артур (2009) // 100 великих экономистов после Кейнса = Great Economists since Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. -СПб.: Экономикс, -С. 225-227. -384 с.

Блауг М. Пигу, Артур С. (2008) // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. -СПб.: Экономикс, -С. 240-243. -352 с.

Блауг М. Сэй, Жан Батист (2008) // 100 великих экономистов до Кейнса = Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. -СПб.: Экономикс, -С. 287-289. -352 с.

Блауг М. Филлипс, А. Уильямс (2009) // 100 великих экономистов после Кейнса = Great Economists since Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. -СПб.: Экономикс, - С. 310-312. -384 с.

Кейнс Д.М. (2014) Общая теория занятости, процента и денег. Монография. Директ-Медиа, 472-стр.

Кондратьев Н.Д. (2007) Основные проблемы экономической статики и динамики. Монография. -М.: Директ-Медиа, -403 с.

Мальтус Т.Р. (2022) Опыт закона о народонаселении. Монография. -М.: Издательство «Наше завтра», -320 с.

Ҳамираев О.Х. (2004) Иқтисодий мувозанатнинг назарий асослари ва уни таъминлаш механизмлари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: -280 бет.